Animator bo'lish oson ish emas. Animator dastlab muayyan ish ko'nikmalari va malakaga ega bo'lishi kerak, shuningdek bu ish uchun psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Bularning barchasi yangi boshlanuvchilarga o'rgatiladi - til to'sig'ini yengishdan tortib, sizning xarakteringizni o'zgartirish san'atiga qadar. Bundan tashqari, raqsga tushish, mavsumga mo'ljallangan dasturni ishlab chiqish, sport o'yinlari va

musobaqalarni o'tkazish bo'yicha maxsus seminarlar va mahorat darslari o'tkaziladi.

Ta'kidlash joizki, turistik va mehmonxona animatsiyasini boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki:

- turistik va mehmonxona majmualari - turistlarga cheklangan turistik to'plamda xizmat ko'rsatadigan yopiq texnologik sikl korxonalari;
- animatsion dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun juda qisqa vaqt ajratiladi;
- animatsiya xizmatlaridan foydalanuvchilarning yoshi va jinsi, etnik, diniy va boshqa xususiyatlari bo'yicha farq qiluvchi tarkibi doimo o'zgarib turadi.[77]

Mehmonxona animatsiyasining bo'lg'usi menejeri mehmonxona animatsiyasini boshqarishda menejmentning predmeti va ob'ekti nima ekanligini, ushbu kichik tizimlarning o'zaro aloqasi qanday ishlashini aniq bilishi kerak, bu animatsiya faoliyatini rejalashtirish funksiyalari, uni tashkil qilish, rag'batlantiruvchi animator va rejalarning bajarilishini nazorat qilish tushunchalariga kiritilgan.

Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, turizmni jonlantirish formulasi sifatida quyidagi kompleksni tuzish mumkin:

qiziqishdan foydalanish + ko'rgazmani jonlantirish + sayyohlarni harakatlarga jalb qilish + turli ko'ngilochar tadbirlar[180]

Asosiy vazifa turistni qiziqtirishi, o'zini dasturning ishtirokchisi deb his qilishi va o'zining eng yaxshi dam olishi sifatida eslashi uchun qulaylik yaratishdir.

Shunday qilib, animatsion dasturlar mehmonlarning ko'nglini olish, sog'lig'ini tiklash uchun animatorlar tomonidan yaratiladi. Biroq, xuddi shu dastur ba'zi odamlarda ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin, boshqalarida esa aksincha. Taklif qilinayotgan animatsion dasturlarni idrok etish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq:

- ishtirokchilar yoki tomoshabinlarning yoshi;
- ma'lumot darajasi;

- jinsi;
- millati;
- ushbu dasturni amalga oshirish paytidagi kayfiyat va boshqalar.

Shuning uchun ushbu xizmatlarning iste'molchilarini oldindan farqlash, turli xil didlarni qondirish uchun bir nechta dasturlar yoki tadbirlarga ega bo'lish juda muhimdir.

I bob bo'yicha xulosa

I bobda men animatsiyani tushunchasini, uning turlari, shakllari, tipologiyasi haqida yozdim. Unga ko'ra: turizmدا animatsiya - xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan xizmat turidir va shu bilan birga bu reklama, mehmonlar va ularning do'stlarini qayta jalb qilishning o'ziga xos turidir, shuningdek uning maqsadi turistik sanoatning daromadliligi va rentabelligini oshirish uchun turistik mahsulotni bozorga chiqarishdir.

Turistik animatsiya - turistik xizmat, uni taqdim etish bilan sayyoh faol harakatlarga jalb qilinadi. Bu animatorning sayyohlar bilan shaxsiy aloqalariga, ularning turistik kompleksning animatsion dasturida taqdim etiladigan ko'ngilochar tadbirlarda birgalikda ishtirok etishlariga asoslanadi. Bu turistik kompleksda, mehmonxonada, kruiz kemasida, poezdda amalga oshiriladigan turistik faoliyat turidir, u maxsus ishlab chiqilgan hordiq chiqarish dasturlarida qatnashish orqali turli tadbirlarga jalb qilinadi.

Animatsion turizmning eng asosiy maqsadi: dam olishga bo'lgan ehtiyojni qondirish, uning yaxshi kayfiyati, ijobiy taasurotlari, ma'naviy va jismoniy kuchlarini tiklashidir.

II BOB XORIJIY MAMLAKATLARDA TURIZM ANIMATSIYASI TAHLILI

2.1. Xorijiy mamlakatlarning turizm animatsiyasi

Bugungi dunyoda ko'ngilochar animatsion tadbirlar, ertakona gladiator janglari va ot poygalari kabi tadbirlar turizmdan katta biznesga aylandi. O'yin-kulgi va xordiq chiqarish tadbirlari doimo turizmda birinchi o'rinda turadi. Kazinolar, mashhur qahvaxonalar, barlar, diskotekalar, klublar, kinoteatrlar, konsertlar ko'pincha sayohat qilish uchun sababdir. [126]Yevropaning janubiy mintaqasidagi ko'plab mehmonxonalar mehmonlarni xushnud etish va ko'ngil ochish uchun o'z dasturlarining bir qismi sifatida ko'ngilochar shoularni tashkil etishgan. Ular eski mijozlarni saqlab qolish va o'z xizmatlariga yangi mijozlarni jalb qilish uchun taassurotga juda ko'p e'tibor qaratishlari kerakligini tushunadilar, ya'ni mehmonxona yoki kurort kabi turar joy bilan ta'minlangan barcha xizmatlar mijozning qoniqish darajasini belgilaydi. Bu turar-joylarda ta'tilni o'tkazish uchun sarflangan pulning maksimal qiymatini olishning doimiy ta'sirini qoldiradi. Yana bir kuchli sayyohlik magniti bu jonli o'yin-kulgi hisoblanadi. Yirik ko'rgazmalar ko'plab xalqaro sayyohlarni jalb qiladi. 1993 yilda Parijdagi Musey-Orseyda bo'lib o'tgan "Impressionizmning yuz yilligi" ko'rgazmasida 1,1 million kishi Barnes jamg'armasining ko'rgazmasiga tashrif buyurgan, Germaniyada Barns kolleksiyasining keyingi namoyishi shu qadar olomonni jalb qilganki, to'plamni namoyish etuvchi muzey sayyohni bir qancha muddatga qolishga majbur qilgan. Jonli shoular va tomoshalar ko'pincha ta'tilning asosiy diqqatga sazovor joyi va sababidir. Bunga 2010 yil 15 oktyabrda Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan Amerika Qo'shma Shtatlarining taniqli san'atkorining konserti misol bo'la oladi. G'arbiy Finlyandiya dan ikki yosh qizlar (sayyohlar) rassomning sahnada chiqishlarini ko'rish uchun Xelsinki ga 450 kilometrdan ko'proq masofani bosib o'tishlari kerak edi. Ushbu sayohat ichki turizm sifatida qabul qilinadi. Turli xil turar joylarda konsert o'tkazilayotgan

davrdav ushbu ob'yekt xonalarining sotilishini ko'paytiradi. Tadbir o'tkaziladigan destinatsiya, shahar yoki shahar atrofi konsert o'tkazilishidan olinadigan foyda uchun o'z ulushiga ega. [170]Kichik biznes, Savdo majmualari, restoranlar va boshqa kichik xizmat ko'rsatish sohalari singari, konsert davrida ularning biznesi o'sishi kuzatiladi; ular odatda ko'proq mijozlarni qabul qiladilar. Odamlar atrof-muhitdan zavqlanib, o'zlarining sevimli musiqachisi yoki artistining chiqishlarini ko'rish uchun bir markazda yig'ilishadi. O'tkaziladigan joyga yetib borish uchun ular turli transport vositalarini, jumladan temir yo'l, avtomobil yo'llari, dengiz va havo vositalaridan foydalanadilar. Odamlarni tashish uchun ushbu tizimlar biznesning professionallari tomonidan ortib borayotgan trafik va savdodan zavqlanadilar.

Dunyo iqtisodiy forumida 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to'plamida bir qancha olimlar tomonidan dunyo turizmi o'rganilib chiqqan. Unga ko'ra turizm va sayohatni quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganish va baholash mezonini ko'rsatilib o'tilgan[204] va aynan animatsion turizmni tabiiy va madaniy- ma'rifiy resurslar mezoniga kiritgan.

2.1-chizma. Turizm va sayohat raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari



Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to'plamidan[204]

Bu ko'rsatkichlar asosida har bir davlatning turizmdagi ulushi batafsil tahlil qilib o'tilgan. Tabiiy va madaniy-ma'rifiy resurslar ko'rsatkichida animatsion turizmni qanchalik rivojlanganini aniqlab beruvchi mezonlar bor. Unga ko'ra bu mezonlar sayohat qilish uchun motiv deb ta'kidlanib o'tiladi.

2.1-jadval.Dunyoda tabiiy resurslari bilan mashhur davlatlar o'ntaligi

O'rinlar	Davlatlar	Baholash mezoni (max.7 ball)
1	Braziliya	6.13
2	Meksika	5.63
3	Kosta Rika	5.43
4	Peru	5.27
5	Xitoy	5.25
6	Avstraliya	5.21
7	Tailand	4.95
8	Tanzaniya	4.93
9	Ispaniya	4.91
10	AQSH	4.90

Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to'plamidan

Bu jadvalda ko'rib turibmizki, Braziliya (6.13), Meksika (5.63) va Kosta Rika (5.43) davlatlari eng yuqori ko'rsatkichlar asosida tabiiy resurslari: mamlakatdagi tarixiy obyektlar, tabiiy yer resurslari, hayvonot va o'simliklar dunyosi bilan dunyoga mashhur ekanligi tahlil etilgan.

2.2-jadval. Dunyoda madaniy-ma'rifiy va biznes sayohat resurslari bilan mashhur davlatlar o'ntaligi

O'rinlar	Davlatlar	Baholash mezoni (max.7 ball)
1	Xitoy	6.94
2	Ispaniya	6.85
3	Fransiya	6.75

4	Yaponiya	6.53
5	Italiya	6.46
6	Germaniya	6.28
7	Buyuk Britaniya	5.96
8	Braziliya	5.75
9	Hindiston	5.28
10	Meksika	5.26

Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to'plamidan

Jadvalda madaniy-ma'rifiy va biznes sayohat resurslari: madaniy obyektlar, xalqaro konferensiyalar, ko'ngilochar va madaniy sport stadionlar, madaniy- ma'rifiy meroslar bilan Xitoy (6.94), Ispaniya (6.85) va Fransiya (6.75) ko'rsatkichlar asosida 140 davlat orasida [204] top uchtalikdan joy oldi.

Bu o'tkazilgan tadqiqot natijalari dunyoning 140 mamlakati orasida olib borildi. Afsuski, ular o'rtasida O'zbekiston mavjud emas. Hozirgi davrda rivojlanayotgan davlatlar: Xorvatiya hamda Bolgariya turizmni rivojlantirish uchun ko'proq e'tiborni turistik animatsion xizmatlarga qaratgan.


2.2. Ispaniyada turizm animatsiyasining rivojlanishi tahlili

Ispaniya turizmi bilan dunyoga mashhur davlatdir. Ispaniya – Yevropa hududiga kiruvchi eng tog'li mamlakat hisoblanadi. Geografik jihatdan Yevropaning janubi-g'arbida Pireney yarimorolida joylashgan, O'rta Yer dengizidagi Balear, Atlantika okeanidagi Kanar orollari, Afrikaning shimoliy qirg'og'idagi Seuta va Melilya shaharlari va unga yondosh Velesdele Gomera, Alu-Semas, Chafarinos orollari ham Ispaniyaga qarashli. G'arbda Portugaliya (chegara uzunligi — 1214 km), shimolda Fransiya (623 km) va Andorra (65 km), janubda Gibraltar (1,2 km) bilan chegaradosh.[206]

Bir qancha tarixiy obyektlari, o'ziga xos tabiat va bir qancha festivallari bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Ispaniyada deyarli turizm turlarining barchasi rivojlangan. Eng ko'p sayyohlarni jalb etuvchi turlari bu: plyaj turizmi,

karnaval-festival turizmi, tarixiy-madaniy turizm, MICE turizm, kurort turizmi, sport turizmi, biznes turizmi kabilardir.[2.2 chizmaga qarang]

2.2-Chizma



Manba: <http://scb.es/en/why-spain/spain-a-global-tourist-power/>

Ispaniya airoporti har yili 230 mln yo'lovchi sayyohlarni qabul qiladi. Suv transportlari bo'yicha esa 8.6 yo'lovchi sayyohlarni qabul qiladi. Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning bosh ofisi ham Ispaniyada joylashgan.

Ispaniya qabul qilgan sayyohlar soni bo'yicha 2018 yilda navbatdagi rekordni o'rnatdi: 2018 yilda ushbu davlatga 82.6 mln kishi tashrif buyurgan. Bu haqda Ispaniya sanoat, savdo va turizm vaziri Reyyes Maroto ma'lum qildi. Bu ko'rsatkich 2017 yilgiga nisbatan 0.9 foiz yuqoriroq bo'lgan.[195]

Ispaniya sayyohlarni qabul qilish bo'yicha Fransiyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. 2017 yilda Fransiyada 87 mln kishi bo'lgan, Ispaniyada sayyohlar 2018 yil davomida 89.7 mlrd yevro pul sarflashgan. Bu qiymat 2017 yilgiga nisbatan 3.1 foiz ko'proq bo'lgan. Har bir sayyoh o'rtacha 1082 evro sarflagan. 2019 yilda iyul oyida, Ispaniya milliy statistika instituti (INE) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatga jami 9.9 million chet ellik sayyoh tashrif buyurgan, bu 2018 yilning shu davriga nisbatan 1.3 foizni tashkil etadi.

Shu bilan birga, sayyohlik xarajatlari o'sishda davom etdi. Chet eldan Ispaniyaga kelganlar sayohatchilar 11.98 milliard evro sarfladi, bu 2018 yilning iyul oyiga nisbatan 2 foizga ko'p, va har bir turistga o'rtacha 160 evro sarf qilingan, bu o'tgan yilga nisbatan 4.9 foizga ko'p.

Chet eldan kelganlar Ispaniyaga sayohatlariga 11.98 milliard evro sarflashgan, bu o'tgan yilning iyul oyiga nisbatan 2 foizga ko'p.

Iyulda Ispaniyaga jami 2.16 million britaniyalik tashrif buyurdi, bu o'tgan yilga nisbatan 2.2 foizga kam. 2018 yil bu ko'rsatkich 2017 yilning iyuliga nisbatan 2.6 foizga pasaygan. Bu shuni anglatadiki, ikki yil ichida Ispaniyaga 161 mingga kam britaniyalik sayyoh tashrif buyurdi, bu yilgi pasayish 1.6% ni tashkil etdi. Ikkinchi holatda, joriy yilning iyul oyida 2017 yilning shu davriga nisbatan 143 mingga kam nemis sayyohlari kelgan. Bu iyul oyida 1.24 million kishi tashrif buyurgan, bu o'tgan yilga nisbatan 3 foizga kam. Tashriflar sonining kamayishi ispan mehmonxonalari o'z ta'sirini ko'rsatdi, nemis sayyohlari orasida bir kecha-kunduzda 11.8%, britaniyaliklar uchun 1.2% ga ko'paygan.

Umuman olganda, tushish asosan Markaziy Evropa sayyohlari orasida kuzatilgan, masalan, Belgiyaliklar (-2%), Gollandiyaliklar (-4.82%) va Shveytsariya (-8.6%). Shu bilan birga, tashriflar frantsuzlar (2.3%, 1,4 milliongacha), irlandlar (6.7%) va ruslar (5.21%) orasida o'sdi.[134]

Iyul oyida AQShga sayyohlar soni 429 666 kishini tashkil etdi, bu bir yil oldingi ko'rsatkichga nisbatan 19.8 foizga ko'p. Shu yilgacha Ispaniyaga ikki millionga yaqin amerikalik tashrif buyurdi, bu 2018 yilning shu davriga nisbatan 14.24 foizga ko'p.

Ispaniya iyul oyida 9,88 million chet ellik sayyohni qabul qildi, bu avvalgi yilga nisbatan 133.199 (1.3%) va 2017 yil iyul oyiga nisbatan 606 391 ga kam, bu rekord bo'yicha iyul oyining eng yaxshi oyi edi. Biroq, 2019 yil uchun ushbu ko'rsatkichlar 2018 yilning shu davriga nisbatan yaxshilanmoqda: jami 48.06 ta turist tashrifi, bu o'tgan yilning birinchi etti oyiga nisbatan 1.9% ga ko'p.[208]

Ispaniya asosan turistik animatsiyaning tadbirlar animatsiyasiga ko'proq urg'u berib mavsumiylilikni yo'qotish chorasi sifatida keng qo'llamoqda.

ICCA (Xalqaro Kongress va Bitimlar assotsiatsiyasi)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra Ispaniya tadbir, konferensiya, bazmlar o'tkazish bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Ispaniyaning ikki shahri Barselona va Madrid ICCA ma'lumotlari ko'ra uchrashuv va tadbirlar makoni sifatida tan olindi.

2015 yil Ispaniya 22000 ortiq tadbirlarni o'tkazib, tashrif buyuruvchilar soni 3.8 mlnga yetdi. [209]

Ispaniyaning 2020 yilda rejalashtirayotgan tadbirlar ro'yxati


01.01.2020	New Year's Day (closures)
06.01.2020	Dia de los Reyes Magos (Epiphany/Thee Kings Day parades)
02.02.2020	La Candelaria, Madrid (food festival)
Fevral-mart	Carnival celebrations across Spain; particularly big in Cádiz , Sitges (with an LGBT focus), Madrid , Barcelona , and Santa Cruz de Tenerife
23.02.2020	Seville Marathon
28.02.2020	Day of Andalucía (some closures in Andalucía)
01.03.2020	Balearic Day (closures in the islands)
15-19.03.2020	Las Fallas , Valencia (parades, fireworks)
19.03.2020	St. Joseph's Day (closures in Madrid and Extremadura)
05-11.03.2020	Holy Week (Semana Santa; processions and passion plays, especially in Andalucía; some closures on Maundy Thursday and Good Friday)
12-13.04.2020	Easter (Pascua) Sunday and Monday (some closures)
23.04.2020	St. George's Day (special flower markets in Barcelona; other events across Catalunya), Aragón Day, and Castile and León Day (closures in each region)
26.04-02.05.2020	Feria de Abril (April Fair), Sevilla
29.04-03.05.2020	Festival of the Crosses , especially in Andalucía, particularly in Córdoba (processions and parties)
May	Bullfights and zarzuelas all month long, Madrid
01.05.2020	May Day/Labor Day (closures)
02.05.2020	Madrid Day (closures in the city, street parties centered on Plaza 2 de Mayo, fireworks on evening prior)
03.05.2020	Fiesta de las Cruces, Granada and Córdoba (religious festival) Early May (4 days): WOMAD , Cáceres (Extremadura; world music festival, free)
04-17.05.2020	Córdoba Courtyards Festival (Los Patios de Córdoba; courtyard-decorating competition)
07-10.05.2020	Ibiza Medieval Fair

08-10.05.2020	Spanish Grand Prix , Barcelona
09-16.05.2020	Feria del Caballo , Jerez de la Frontera (horse pageantry)
10-15.05.2020	Fiestas de San Isidro , Madrid (traditional dancing in squares)
12-17.05.2020	Titirimundi International Puppet Theatre Festival , Segovia (performances, street theatre)
15.05.2020	San Isidro Day, Madrid and Nerja (religious festival)
17.05.2020	Galicia Literature Day (closures in Galicia)
21.05.2020	Ascension
30.05.2020	Canary Islands Day (closures in the islands)
31.05-01.06.2020	Pentecost and Whit Monday
01.06.2020	El Rocío pilgrimage (Romería de El Rocío), Andalucía
04-06.06.2020	Primavera Sound , Barcelona (indie rock festival)
09.06.2020	Murcia/La Rioja Day (closures in Murcia and La Rioja)
10-14.06.2020	La Patum , Berga (religious festival with lively parades)
11.06.2020	Corpus Christi (closures in Madrid and Castile–La Mancha)
18-20.06.2020	Sónar Festival , Barcelona (electronic music)
19-20.06.2020	Azkena Rock Festival (Basque Country)
20-24.06.2020	Bonfires of San Juan , Alicante
24.06.2020	Festival of St. John the Baptist (bonfires and fireworks, closures in Catalunya)
29.06.2020	Battle of Wine , La Rioja (La Batalla del Vino, literally wine-drenched celebration of Feast of San Pedro)
Iyun oxiri iyul boshi	Granada International Festival of Music and Dance
01-05.07.2020	Madrid Orgullo pride festival (big parade on Saturday)
05-15.07.2020	Running of the Bulls (Fiesta de San Fermín), Pamplona
13-18.07.2020	Jazz de Vitoria-Gasteiz , Basque Country
16-19.07.2020	Festival Internacional de Benicàssim (huge rock concert near Valencia)
25.07.2020	Feast Day of St. James (Santiago de Compostela, also big in Basque Country and Galicia; some closures across Spain)
28.07.2020	Institution Day (closures in Cantabria)
29.07.2020	Fiesta de Santa Marta de Ribarteme , Las Nieves (a.k.a. As Neves, on Portuguese border in Galicia; coffin parade celebrating those who had brush with death in previous year)
13-19.08.2020	Gràcia Festival , Barcelona
15.08.2020	Assumption Day (religious festival; closures); also Verbena de la Paloma (folk festival), Madrid
	Festival of St. Bartholomew, Sitges, with more festivities third weekend in August
23-24.08.2020	Tomatina Festival , Buñol, near Valencia (tomato-throwing melee/party)
26.08.2020	Festival of Pedro Romero (music, dance, traditional costumes,

	parade), Ronda
05.09.2020	Autumn Sherry Festival (flamenco, bullfights), Jerez
08.09.2020	Asturias/Extremadura Day (street parties; closures in Asturias and Extremadura)
11.09.2020	Catalunya National Day (closures in Barcelona)
15.09.2020	Cantabria Day (closures in Cantabria)
21.09.2020	Feast Day of St. Matthew (festivals across Spain; particularly good party in Villamartín, near Arcos)
19-22.09.2020	La Mercè , Barcelona (street theater, music, parades, light shows)
23.09.2020	Festival of St. Tecla, Sitges
25.09.2020	Little San Fermín, Pamplona (concerts, parades)
25-27.09.2020	Feria de San Miguel , Sevilla (bullfights)
09.10.2020	Valencia Day (parades, closures in Valencia)
12.10.2020	Spanish National Day (closures)
24.10-02.11.2020	Fires de Sant Narcis , Girona (procession, human-tower building, fireworks)
01.11.2020	All Saints' Day (closures)
Noyabr dam olish kunlarida	Cartagena Jazz Festival
06-13.11.2020	Zinebi International Documentary Film Festival , Bilbao
06-14.11.2020	Sevilla European Film Festival
09.11.2020	Feast of the Almudena, Madrid (religious festival)
03.12.2020	Navarre Day (religious parades and closures in Navarre)
06.12.2020	Constitution Day (closures)
08.12.2020	Feast of the Immaculate Conception (closures)
13.12.2020	Feast of Santa Lucía
25.12.2020	Christmas (closures)
26.12.2020	St. Stephen's Day(some closures)
31.12.2020	New Year's Eve


Manba: <https://www.ricksteves.com/europe/spain/festivals>

Ispaniyaning shahri Valensiya ham, sayohatlarni rag'batlantiruvchi asosiy animatsiya yo'nalishi bo'lgan konferensiya turizmining markaziga aylandi. Albufuera qo'riqxonasi va shahar markazini sharqdan g'arbga tomon kesib o'tadigan qadimgi Turiya daryosida joylashgan yashil shahar keng qamrovli ekologik taklifga ega. Valensiya - barcha tadbirlarni boshqarishda tajribali shahar; qit'adagi eng to'liq va ko'p qirrali yo'nalishlardan biri sifatida keng tanilgan. Valensiyada har oy tadbirlar uyushtirilib, ularni Getzning tadbirlar tipologiyasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratdim.



Manba: Getz, D. (2005). Event management and event tourism (2nd ed.). New York: Cognizant.

Valensiyaning turistik portali (VLN Valencia <https://www.visitvalencia.com>) statistikasiga ko'ra 2018 yilda havo yo'llari orqali




2.1 – rasm. Havo yo'llar orqali tashrif buyuruvchilar tashrif buyuruvchilar soni 3 mln 388 014 nafarga yetgan. (2.1.rasmga qarang).Ularning ko'pchiligi mahalliy aholi

bo'lib, keying o'rinda Italiyadan tashrif buyuruvchilar egallagan.

2.2 – rasm. Maqsadiga ko'ra tashrif buyuruvchilar foizi(%)

Sayyohlarning 82% hordiq chiqarish, 13% biznes, 5% uchrashuvlarga qatnashish maqsadida tashrif buyurishgan.



Manba: <https://www.visitvalencia.com>


2.3 – rasm. Yoshiga qarab sayyohlarning tashrifi

(manba: <https://www.visitvalencia.com>)

Ma'lumotlarga qaraganda tashrif buyuruvchilarning 3 % 18-24 yoshdagilar, 26 % 25-34 yoshdagilar, 50 % 35-50 yoshdagilar 18% tashrif buyuruvchilar esa 55-64 yoshdagilar, 3 % 65 yoshdagi va undan katta yoshdagilar qayd etilgan. Tashrif buyuruvchilarning yarmi 35-54 yoshdagilar bo'lib, asosan xordiq chiqarish uchun tashrif buyurishgan.


MICE turizm ham yuqori darajada rivojlangan bo'lib, uning negizi animatsion xizmatlarga borib taqaladi. 2018 yilda 126 865 nafar tashrif buyuruvchilar qayd etilgan. Ulardan 43 % tadbirlarga, 31 % konferensiyalarga, 17% bitim kelishuvlarga, 9% qatnashchuvchilar mahsulot taqdimotlariga qatnashishgan.

2.4 –rasm. MICE turizmiga qatnashovchilar



(manba: <https://www.visitvalencia.com>)

2018 yilda tashrif buyurgan sayyohlar Valensiya shahridagi mehmonxonalar bandligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Quyidagi chizmalarda tunab qoluvchi va tashrif buyuruvchi sayyohlar misolida bir yillik ko'rsatkich qayd etilgan.



2.3 – chizma. Mehmonxonalarda tunab qoluvchi va tashrif buyuruvchi sayyohlar

Yil davomida tashrif buyurgan sayyohlarni soni deyarli bir xil bo`lib, yanvar, fevral, noyabr va dekabr oylarida pasayganini ko`rishimiz mumkin. Tunab qolgan sayyohlar esa avgustda oyida yuqori cho`qqiga chiqqan. [210]

Bu statistikalar shuni ko`rsatadiki, Valensiyada animatsion faoliyat uning turizmiga juda yaxshi ta`sir ko`rsatib, sayyohlar oqimini yanada ko`paytirmoqda.

2.3. Turizm animatsiyasining rivojlanishida Xitoy tajribasi

Xitoy, 2017 yilga turizm rivojlanishi bo`yicha 2-o'ringa ko'tarilib, yanada rivojlanish uchun kundan-kunga yangi g`oyalar bilan yuqori cho`qqilarga harakat qilmoqda. Geografik jihatdan Xitoy Osiyoning sharqidagi davlat. Chegarasining umumiy uzunligi — 22140 km, sohil bo`ylab chegara uzunligi — 14500 km. Xitoy hududining kattaligi jihatidan dunyoda uchinchi o`rinda turadi. Xitoyning janubida Nanlin va Yunnan-Tuychjou tog`lari qad ko`targan.[69]

Xitoyda turizm iqtisodiyotning muhim qismiga aylanib borayotgan sanoatdir. So`nggi bir necha o'n yilliklarda islohot va yangi xizmat sezilarli darajada o'sdi.

2015 yilga kelib, Xitoy Frantsiya, AQSh va Ispaniyadan keyin dunyoda eng ko'p tashrif buyuradigan to'rtinchi mamlakat bo'lib, yiliga 56,9 million xalqaro sayyohlarni qabul qiladi.

2017 yilda turizm 8,77 trln. (1,45 trln. AQSh dollari) yalpi ichki mahsulotning 11,04 foizini tashkil qildi va 28,25 million kishiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bandlikni ta'minladi. 139,48 million kiruvchi va besh milliard ichki sayohatlar bo'lgan. 2016 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyning ko'plab sayyohlari Gonkong, Makao va Tayvandan kelgan. Kamida bir kecha turadigan sayyohlar soni orasida 27,72 million kishi Gonkongdan, 4,81 millioni Makaodan va 5,09 millioni Tayvandan kelgan.

Xitoy madaniy-ma'rifiy va biznes sayohat resurslari bilan dunyoda birinchi o'rinni (6.94) egallab turibdi.[207] Buni tahlil qiladigan bo'lsak, haqiqatda ham Xitoy o'zining beqiyos madaniyati bilan bir qancha turistik animatsion tadbirlar orqali turizm sohasini jadal rivojlantirmoqda. Internet ma'lumotlariga qaraganda, Xitoyda har oyda kamida uchta turistik tadbirlar: yarmarka, ko'rgazmalar, shou-tomoshalar, milliy bayramlarni keng nishonlash kabi tadbirlarni amalga oshiradi. Bu tashkil etilayotgan turistik animatsiyalar esa hududdagi barcha infratuzilmalarni birdamlikda ishlashini ta'minlaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2017 yil amalga oshirilgan bahor oyidagi festivallarda 6.15 mln tashrif buyuruvchi qayd etilgan. Bu 2016 yildan 7% oshganini bildiradi. Ushbu bahorgi festivallarda eng ko'p tashrif buyurganlarning ko'pchiligi Tailand, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya va Vetnamdan ekanligi qayd etilgan.(2.4 – chizmaga qarang.

Misol tariqasida, 2005 yildan buyon har yili aprel oxiri may boshlarida Xitoy xalqaro multfilm va animatsiyalar festivali (CICAF)bo'lib o'tadi. Shu festivallarda tashrif buyuruvchilarni tahlil qilamiz [205]. (CICAF) eng nufuzli festival sifatida nafaqat shaharga kelayotgan mutaxassislar sonining ko'payganini, balki sayyohlar soni ham ko'payib borayotganligini, sanoatni rivojlantirish va boyitganligini, mahalliy aholining madaniy hayotini ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlab bermoqda. Ushbu festivalda 45 dan ortiq

tadbirlar bo'lib o'tadi va Xanchjou mehmonxonalarida ko'plab tanlovlar, ko'rgazmalar, forumlar va biznes muzokaralar bo'lib o'tadi.



2.4 – chizma. 2017 yil Xitoyning bahorgi festivallariga tashrif

buyurganlar soni (manba: <http://www.globaltimes.cn/content/1031284.shtml>)

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2019 yil XV Xitoy xalqaro multfilm va animatsiyalar festivalida(CICAF) 1.436 mln kishi tashrif buyurgan, 86 davlatdan 2.645 kompaniya va tashkilotlar qatnashgan, 1.368 ta loyiha taxminan umumiy 13.984 RMB mlrd (2.027 USD mlrd) mablag'ga imzolangan. Xanchjou mehmonxonalarida mehmonlar joylashtirilgan [207].

Xitoydagi har bir mehmonxona o'z imkoniyatlarini to'ldirish orqali ko'p sonli mehmonlar olib kelish uchun kurashmoqda.

Mehmonxonaning takliflari butun mavsum davomida har xil bo'lishi kerak. Chunki may oyida ta'tilga boradigan mehmonlar avgust va sentyabr yoki oktyabr oyida tashrif buyuradigan mehmonlar istak-xoxishi bir xil emas. Yoki yosh jihatdan keluvchi mehmonlar yoshi har xil bo'ladi. Shu maqsadda ko'pgina Xitoy mehmonxonalar boshqa usulni tanlashdi. Bu usul mehmonxona turistik animatsiya xizmatidir. Uning har bir mavsumda moslashuvchanligi va barcha yosh guruhlariga to'g'ri kelishi ancha qulaydir.

Xitoy mehmonxonalari qariyalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan inshootlarni qurish kabi yangi g'oyalar bilan doim mehmonxona tuzilishiga o'zgartirishlar kiritib turadi. Boshqa jihatdan esa animatorlar yoshlar uchun ijobiy muhit yaratish, har qanday muhitga to'g'ri keladigan (bulutli, issiq, sovuq, tabiiy ofatlar va h.k) dasturlarni ishlab chiqish kabi muammolar bilan jiddiy shug'ullanishadi.

Animatsiya har bir mehmonxonaning iqtisodiy foydasini oshiradi. Mehmonlar mehmonxonadan chiqmaslik va o'z pullarini boshqa restoranlarda, barlarda va diskotekalarda sarflamaslik uchun to'liq taklif bitta joyda (mehmonxona joylashgan joyda) mehmonxonada animatorlar tomonidan bir qancha dasturlar ishlab chiqiladi.

Xitoy mehmonxonalari asosan "barchasini qamrab olgan" dasturlarni inobatga oladi. Animatsiya dasturlari bir mehmonxonadan boshqa mehmonxonagacha farq qiladi. Eng muhimi barcha tadbirlar oldindan tayyorlanishi kerak. Quyida ularning nimalarga e'tibor berish aytib o'tilgan:

Tashkiliy yondashuv:

- har bir dastur boshlanishidan yarim soat oldin tayyorlanib keyin boshlanadi;
- tadbirlar bir necha kun oldin e'lon qilish kerak;
- tozalikka e'tibor qaratiladi;
- musiqani oldindan tayyorlashadi (mijozlar uchun mos musiqa)
- rekvizitlarni tayyorlanadi;
- sovg'alarni tayyorlanadi;
- yaxna ichimliklar tayyorlanadi.

Tanishtiruv qismi;

- tanishtiruv taqdimoti qisqa va mazmunli bo'lishi;
- mamlakat haqida ma'lumot;
- shu mamlakatning milliy urf-odatlar, liboslari;
- milliy yaxna ichimliklar bilan siylash;
- qisqacha animatsion dasturchilari bilan tanishuv;

- va dastur haqida qisqa ma`lumotlar beriladi.

Xitoyda eng yaxshi animatsion dasturlarga ega mehmonxonalar Sanya shahri yaqinidagi Xaynan kurort orolida joylashgan. Holiday Inn Resort Sanya Bay 5 * mehmonxonasi o'zining ajoyib animatsiyasi bilan mashhur bo'lib, u yerda spektakllarda ko'pincha jonli musiqa yangraydi. Mehmonxona Sanya markazidan 8 km uzoqlikda joylashgan.

San'at markazidan 10 daqiqalik masofada joylashgan Ocean Sonic Resort 5 * mehmonxonasida ham ajoyib animatsiya taqdim etiladi.

Xitoy mehmonxonalarida bolalarning animatsiyasi deyarli yo'q. Uning o'rnini turli yoshdagi bolalar uchun mini-klublar egallaydi.

Xitoyning eng yaxshi animatsiyasi bu mamlakatni boshqalardan ajratib turadigan poytaxt mehmonxonalarida yaratilgan. Pekinning ko'pchilik mehmonxonalarda animatsiya mavjud.

Pekinda joylashgan International 4 * va New Otani 4 * mehmonxonalarida (yapon mehmonxonasi) turistlar uchun ajoyib animatsiya tashkil etilgan.

Pekin shahridagi barlar va ko'ngilochar markazlar hududida joylashgan Sanlitong shahrida joylashgan Westin Beijing Chaoyang 5 * mehmonxonasi ham ajoyib animatsiyasi bilan mashhur. Ushbu mehmonxonada bolalar uchun animatsiya ham mavjud.

Xitoyda animatsiyani uch yulduzli arzon mehmonxonalarda ham ko'rish mumkin. Bunga misol - Xitoyning uchinchi yirik shahri bo'lgan Guangjou shahridagi Canye Hotel 3 *.

Xitoy nima uchun mehmonxonalarda animatsiyani qo'llab – quvvatlaydi degan savollarga quyidagicha javob beradi;

- animatorlar yaxshi muhit yaratadi;
- yangi do'stlar orttirish imkoniyati;
- Bir vaqtning o'zida ham kayfiyatni ko'tarib ham davolanish;
- Ma`naviy boyish kabi bir qancha mehmonlarga qulayliklar taqdim etgani uchun mehmonxona animatsiyasini deyarli barcha mehmonxonalarda qo'shimcha xizmat sifatida kiritiladi.[192]

Umuman olganda, Xitoyda tashkil etilayotgan bunday animatsion turistik tadbirlar va marosimlar, mehmonxona animatsiyasi sayyohlar uchun motiv bo`lib, sayyohlik oqimini ko`payishiga olib keladi. Tashrif buyurgan sayyohlar ongida muhrlanib qoladi va kelajakda sayyohlik oqimini kuchaytiradi.

II.Bob bo`yicha xulosa

Bu bobda men xorijiy mamlakatlarda turistik animatsiya xizmatiga qaratilgan chora-tadbirlarni o`rganib chiqdim. Natijalarga qaraydigan bo`lsak, ularning ko`pchiligi turistik animatsion durturlariga o`z e`tiborini qaratishgan.

Ispaniya turistik animatsiyaning tadbirlar yo`nalishida ko`p sayyohlarni mamnun etmoqda. ICCA (Xalqaro Kongress va Bitimlar assotsiatsiyasi)ning statistik ma`lumotlariga ko`ra Ispaniya tadbir, konferensiya, bazmlar o`tkazish bo`yicha dunyoda to`rtinchi o`rinni egallaydi. Deyarli har oy kamida 2-3 ta sayyohlar uchun tadbirlar uyushtirib, mavsumiylik muammosini bartaraf etgan.

Xitoy o`zining noyob urf-odatlarini, mehmonxonalardagi noodatiy xizmat turlari ya`ni mehmonxona animatsiyasi orqali mehmonxona gavjumligini ta`minlamoqda. Xitoy mehmonxonalari qariyalar va yoshlarni qo`llab-quvvatlaydigan inshootlarni qurish kabi yangi g`oyalar bilan doim mehmonxona tuzilishiga o`zgartirishlar kiritib turadi. Boshqa jihatdan esa animatorlar yoshlar uchun ijobiy muhit yaratish, har qanday muhitga to`g`ri keladigan (bulutli, issiq, sovuq, tabiiy ofatlar va h.k) dasturlarni ishlab chiqish kabi muammolar bilan jiddiy shug`ullanishadi.

III BOB BUXORO HUDUDI TURIZM ANIMATSIYASINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

3.1. Buxoro hududida turizm animatsiyasi imkoniyatlari

Buxoro shahri qadimiy shaharlardan biri bo'lib, turistik imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro viloyati hududida 712 ta tarixiy obyekt mavjud bo'lib, shulardan 441 tasi ta'mirlangan, 394 ta arxitekturaviy binolar, 8 ta maqbara, 47 ta masjid, 14 ta karvonsaroy, 39 ta madrasadan iboratdir.

3.1- jadval.

Buxoro viloyatida mavjud taxiriy obyektlar shahar va tumanlar kesimida

№	Tuman (shahar)	Arxitekturaviy yodgorliklar	Arxeologik yodgorliklar	Monumental yodgorliklar	Diqqatga sazovor joylar	Jami
1	Buxoro shahri	273	3	16	6	298
2	Buxoro tumani	10	60			70
3	Kogon tumani	1	3		2	6
4	Kogon shahri	45				45
5	Qorovulbozor tumani	2				2
6	G'ijduvon tumani	23	21		2	46
7	Shofirkon tumani	3	35		1	39
8	Vobkent tumani	11	53		1	65
9	Romitan tumani	6	25		4	35
10	Peshku tumani	14	13		1	28
11	Jondor tumani	5	64	1	2	72
12	Qorako'l tumani	1	5			6
13	Olot tumani					0
	Jami:	394	282	17	19	712

Manbaa: Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti statistikasi

Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamentining 2019 yil sarhisobi bo'yicha viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni 3,6 mln nafarga yetdi. Bunda, xorijiy turistlar soni 603,0 ming nafarni tashkil etib, bu esa 2018 yilga nisbatan 2,0 barobarga ko'payganini ko'rsatadi.

Turistlarga yanada qulay sharoitlar yaratish va xizmatlar eksportini ko'paytirish maqsadida mehmonxonalar, muzeylar, kafe-restoran, savdo shahobchalari va boshqa ob'ektlarda xorijiy valyuta hamda xalqaro plastik

kartalardan to'lovlarni hamda milliy va xorijiy valyutani qabul qilish bo'yicha 67 ta valyuta ayirboshlash shaxobchalari, 35 ta avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari o'rnatildi.

Bundan tashqari, Yetti pir ziyoratgohlariga tutash hududlarda 7 ta mehmonxona qurish uchun 1,7 gektar yer uchastkalari ajratilib, bu ob'ektlarning 5 tasida Shofirkon, Vobkent, Kogon va Romitan tumanlarida joylashgan Xo'ja Orif ar-Revgariy, Xo'ja Ali Romitaniy, Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy va Xo'ja Muhammad Boboi Samosiy ziyoratgohlari yonida qurilish ishlari yakunlanib foydalanishga topshirildi.

Viloyatda turizmning eko, agro, gostronomik, qishloq va madaniy kabi barcha tarmoqlari rivojiga yuqori darajada e'tibor qaratilib, ko'plab yangi turistik marshrutlar va xizmatlar turlari o'zlashtirildi.

Turistik animatsiya bilan Buxoro hududida bir qancha chora tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan,

- sayyohlar uchun muntazam ravishda yangi yo'nalishdagi madaniy va ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish maqsadida shahar va tumanlarda har yili 21 ta turli madaniy tadbirlar, ko'rik-tanlov va festivallarning aniq kunlari belgilanib, o'tkazish yo'lga qo'yildi.

3.2 - jadval

Buxoroda viloyatida o'tkaziladigan tadbir-festivallar ro'yxati

№	O'tkaziladigan joyi	O'tkaziladigan tadbir nomi	O'tkazilish vaqti
1.	Kogon shahar	Xalqlar do'stligi festivali	Mart
2.	Jondor tuman	Varaxsha malikasi qizlar ko'rik tanlovi	Mart
3.	Buxoro shahri	Nasriddin Afandi va sharq taomlari festivali	1-2 aprel
4.	Qorako'l tuman	Poykent oqshomlari festivali	Aprel
5.	Buxoro shahri	Ipak va ziravorlar festivali	May-iyun
6.	Shofirkon tuman	Kashtado'zlik va xalq o'yinlari festivali	May
7.	Qorovulbozor tuman	Lola sayli festivali	May

8.	G`ijduvon tuman	G`ijduvon kulolchiligi va pazandalari festivali	May
9.	Vobkent tuman	Asal sayli festivali	Iyun
10.	Kogon tuman	Naqshbandiya o`gitalari konferensiyasi	Iyul
11.	Olot tuman	Polvonlar mahorati musobaqasi	Iyul
12.	Peshku tuman	Xalq tabobati va tabiblar tanlovi	Avgust
13.	Buxoro tumani	Agro turizm saboqlari festivali	Avgust
14.	Romitan tuman	Uzum va anjir festivali	Sentyabr
15.	Buxoro shahri	Hunarmandlar festivali	Sentyabr
16.	Buxoro shahri	Iqtidorli oshpazlar ko`rik tanlovi, yarmarka	Dekabr

Manba: Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti

Madaniy tadbirlar borasida 2021 yilda viloyatda har yilgidan ko'p madaniy va ko'ngilochar tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan. Jumladan, 25 ta konferensiya, 10 ta forum, 15 ta yarmarka va ko'rgazmalar hamda tuman va shaharlarda 19 ta festivallar o'tkazilishi nazarda tutilgan.

- “Authentic Travel” turistik kompaniyasi tomonidan fransiyalik Catherine Uiterdijk hamda Teunis Uiterdijk hamkorlar bilan birgalikda “Suv minorasi” negizida sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi animatsion “Bukhara Tower” obyekti barpo etildi.

- Mehmonxonalarda mavsum bo`lmagan paytlarda to`y – marosimlar uchun urfga aylangan fotosessiyalar o`tkazilib kelinmoqda.

- Ba`zi bir mehmonxonalarning restoranlari esa nomavsumda yangi yil bazmlarini korxonalar va tashkilotlar uchun tashkillashtirib berishmoqda va bolajonlar uchun yangi yil ta`tilida ertakona yangi yil animatsion dasturlari bilan mahalliy sayyohlarni o`ziga jalb qilmoqda.

- Yaqin 2-3 yil ichida milliy urf-odatlarimizni sayyohlarga jonli ko`rsatib berish uchun sun`iy tarzda to`y – marosimlar yoki tabiiy to`y –tomoshalar uyushtirish ishlari boshlandi. Jumladan 2018 yildan Buxoro shahrida iste`qomat qiluvchi fuqaro Tagirova Zulxumor tomonidan o`z uyida O`zbek urf-odatlarini namoyon qiluvchi 45 daqiqali jonli San`at kolleji talabalari hamda o`qituvchilari hamkorligida sun`iy animatsion loyiha ishlab chiqildi va bir qancha turistik

korxonalar hamda turagentliklarga taqdim etildi. Hozirda bu loyiha ekspertlar tomonidan ko`rilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunda nafaqat Buxoro balki, boshqa turistik shaharlar ham turizm oqimini oshirishda xorij tajribasiga asoslanib, turizm animatsiyasini yanada takomillashtirib borishni mo`ljallashtirmoqda.

Buxoroning turistik ob`yektida turistik animasiyani qo`llash mumkin. Men taklif etayotgan animatsion dasturlar quyidagilar:

- ✓ Buxoroning har bir mehmonxonasida milliy ufr-odatlar, jonli ijrolar orqali “kechki bazm” madaniy hordiq tashkillashtirish;
- ✓ Buxoro muzeylarida tarixiy voqealardan parcha olib sahna ko`rinishlarini tashkil etish;
- ✓ Ark qal`asida xonlar marosimini tashkil etish;
- ✓ Moxi xossa majmuasida Amir Olimxon hayot tarzini shakllantirish;
- ✓ Ko`hna va boqiy Buxoro drama teatrida Buxoro tarixini ko`rsatib beruvchi tarixiy sahna ko`rinishlarini tashkil etish.

3.2. Buxoro turistik tarixiy animasiyasi loyihasini tayyorlash

Buxoroda namoyishlar va ko`ngilochar tadbirlar ya`ni animatsiyali tadbirlarni namoyish etishda bir qancha imkoniyatlar jumladan; teatr, kinoteatr, qo`g`irchoq teatrlari, mehmonxonlar, tarixiy-madaniy obyektlar mavjud bo`lib, lekin ularning salmoqlisi sayyohlarga namoyish etish uchun xizmat qiladi. Imkoniyatlardan foydalanib, Ko`hna va boqiy Buxoro majmuasidagi drama teatrida nafaqat sayyohlar balki mahalliy aholi uchun ham Buxoro tarixini ko`rsata oladigan animatsion sahna ko`rinishlari taqdim etish mumkin.



3.1-rasm. Ko`hna va Boqiy Buxoro majmuasining google.mapdagi surati.

Bu majmua 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar – 700 o`rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo`ljallangan amfiteatr, ular o`rtasida esa “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumentidan iborat. Sayyohlar uchun juda ham qulay shinam maskan hisoblanadi. Turistik infrazilmalardan ancha yiroq bo`lgan bu sayohatgohda geoaxborot texnologiyalardan unumli foydalanib uning kelajakdagi istiqbolini kuchaytirish mumkin.

Hozirgi kundagi mavjud imkoniyatlardan foydalanib bu majmuada animatsion faoliyatlarni ko`proq qo`llash kerak. Izlanishlar natijasida quyidagi makonlar aniqlandi va ular sayyohlarga xizmat qilish uchun yaroqlidir.

1. Anhor kafesi
2. Sharshara kafesi
3. Lux hotel mehmonxonasi
4. Malika restoranti
6. Bowling ko`ngilochar majmuasi

Buxoro nihoyatda boy tarixga ega. Ushbu taqdim etilayotgan loyiha aynan Buxoro tarixini jonli ravishda sayyohlarga namoyish etish ko`zda tutiladi.

Bilamizki, Buxoro 3000 yillik tarixga ega bo`lib, bir qancha sulolalar hukmronligi ostida shakllanib kelgan. Tarixga nazar tashlasak, milodiy yillarda

afsonaga aylangan To'maris va Shiroq, Buxoro tarixida bir umrlik muhrlanib qolgan Somoniylar sulolasi va Ismoil Somoniy, Ashtarxoniylar, Qoraxoniylar, XIX asrlarda hukmronlikni qo'lga olgan Said Olimxon, o'tgan asrlarda yashab o'tgan Fayzulla Xodjayev va Buxoroliklar uchun kulgu timsoli bo'lgan Nasriddin Afandi kabi faxrlansa arzigulik buyuk siymolar yashab o'tgan.

Bundan tashqari o'zbek milliy urf-odatlari ham bizning nodir me'rosimizdir. Shu milliy merosimiz orqali ham ko'p yaxshi xotiralarni qoldirishimiz mumkin. Buning uchun xalqimiz urf –odatlarini yaxshi bilishimiz kerak. Shu maqsadga quyida men urf-odatlarimiz haqida yozishni afzal bildim.

Urf-odatlar[183]

O'zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil etopishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'analarning uyg'unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon diiy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Beshik to'yi

Beshik to'yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq bo'lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qakdimgi va O'zbekistronda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to'y chaqaloq tug'ilishining 7-, 9-, 11- kuni o'tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o'zicha xususiyatlarga ega bo'ladi va oilaning boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi: o'ziga

to'q oilalar odatda bu to'yni katta ko'lamda o'tkazadi, kambag'al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'g' yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

Xatna qilish

Xatna qilish to'yi – islom tomonidan muqaddas deb e'zozlangan yana bir qadimiy o'zbek odatidir (sunnat to'yi). Bu marosim o'g'il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o'tkaziladi. Sunnat to'yining o'tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. O'g'il bolaning tug'ilgan paytidan boshlab uning ota-onasi asta-sekinlik bilan kerakli narsalarning hammasini sotib olib, sunnat to'yiga tayyorgarlikni boshlaydilar. Ko'pincha oddiygina «to'y» ham ataladigan marosimning o'tkazilishidan bir necha oy avval unga bevosita tayyorgarlik boshlanadi. Qarindoshlar va qo'shnilar ko'rpalarni tikishda, to'y sovg'alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko'p bolali onalarga topshiriladi. To'ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur'on o'qiladi. Dasturxon yoziladi. Shundan keyin Qur'ondan suralar o'qiladi va

oqsoqollar o'g'il bolaga duo o'qiydilar. Shundan so'ng katta «to'y» boshlanadi. «To'y» dan avval bolaga qo'shnilar, oqsoqollar, qarindoshlarning oldida sovg'alarni, zar tikilgan kiyimlarni kiydirishadi. O'tmishda toychoqni sovg'a qilish rasm bo'lgan edi, bolani endilikda u jangchi bo'lganligini bildirib, unga bolani o'tqazar edilar. Hamma o'g'il bolani tabriklab, unga pul va shirinliklar sepadi, keyin ularning hammasi ichkarida, ayollarning xonalarida davom etadi. Shu kunning o'zida ayollarning davrasida «taxurar» - ko'rpalar, yostiqlarni supaga taxlash marosimi o'tkaziladi, buni odatda ko'p bolali ona bajaradi. Marosimni mo'l-ko'l dasturxon, jumladan bayram oshi tamomlaydi. An'anaga ko'ra oshdan keyin kechqurun hovlida katta gulxan yoqiladi va odamlar gulxan atrofida o'ynaydilar, turli o'yinlarni uyushtiradilar. Ertasiga bayram davom etadi.

Fotiha to'yi

Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o'tkaziladi. O'g'il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo'shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko'rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so'ng qo'shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovcilar yuboriladi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to'yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig'iladi. Sovchilar o'zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog'langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to'yi nikoh tuziladigan va to'y o'tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ichita ikkita non, shirinliklar bo'lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va uning ota-onalariga sovg'alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo'lidan sovg'alar qo'yilgan patnislarni olib, «sarpo

ko'rar» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko'p bolali ona tomonidan ochiladi. Barcha yig'ilganlar kelinning uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo'ladilar. Fotiha to'yidan boshlab va to'yning o'zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to'y tantanasi bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To'ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o'tkaziladi, unga qiz o'zining yaqinlari va o'rtoqlarini taklif etadi.

Nikoh to'yi

Nikoh marosimi an'anaviy tarzda o'zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'oladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o'qilganidan so'ng yoshlar o'zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun ZAGS ga boradi. To'y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to'yga sovg'a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so'ng kuyov o'z oshnalari bilan kelinning ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so'ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor» qo'shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «yanga» (odatda kelinga yaqin bo'lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go'shanga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqtdan keyin kuyov oshnalari bilan birga

